

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA POLITEKNIKA INSTITUTI
“ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV” FAKULTETI
“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“Himoyaga ruhsat etildi”

Kafedra mudiri
Davlyatova G. M.

“ — ” — 2014 yil

5340100 “IQTISODIYOT” YO'NALISHI BO'YICHA

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Korxona foydasini oshirishda moddiy–ashyoviy omillardan samarali foydalanish.
(“A. Akbarali” mas’uliyati cheklangan jamiyati misolida).

Talaba :	48-10 guruh N. Nuriddinova
Bitiruv malakaviy ish rahbari :	G. Davlyatova

Farg’ona – 2014

MUNDARIJA

Kirish

1-bob. Moddiy xom ashyo omillaridan samarali foydalanish asosida foyda miqdorini oshirishning nazariy asoslari

- 1.1 Foyda tushunchasining mohiyati va uni oshirish ahamiyati.
- 1.2 Moddiy omillarning iqtisodiy mohiyati va ularning tarkibi.
- 1.3 Xom ashyo materiallar moddiy omillarning muhim elementi sifatida.
- 1.4. Xom ashyodan oqilona foydalanish omillari.

2-bob. “Akbarali” korxonasida moddiy xom – ashyo omillaridan foydalanish tahlili.

- 2.1. Korxonada foyda miqdorini baholash.
- 2.2. Bir soʻmlik tovar mahsuloti uchun qilingan harajatlar tahlili.
- 2.3. Mahsulot tannarxini harajatlar elementlari boʻyicha tahlil qilish.
- 2.4. Korxonada moddiy xarajatlardan foydalanish darajasini tahlil qilish.
- 2.5. Korxonada materiallar sarfi meʼyorlarining bajarilish tahlili.

3-bob. Moddiy xom-ashyo omillaridan oqilona foydalanish asosida foyda miqdorini oshirish chora-tadbirlari.

- 3.1 Moddiy xarajatlar boʻyicha iqtisod qilish tadbiri.
- 3.2. Xom ashyo va materiallar tarkibini oʻzgartirish asosida foyda miqdorini oshirishga erishish.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar miqdor va sifat ko'rsatkichlari o'zgarishiga sabab bo'ldi. Biz bugun 2013 yilning yakunlari haqida fikr yuritganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida muttanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganligini qayd etamiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, chakana savdo aylanmasi 14,8 foizga oshdi. Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz miqdorida profisit bilan ijro etildi. Inflyatsiya darajasi prognoz parametrlaridan oshmadi va 6,8 foizni tashkil etdi. [2]

Sanoat, ijtimoiy, yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish va texnologik jihatdan modernizatsiyalash bo'yicha faol investitsiya amalga oshirilishi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 11,3foizga o'sishini ta'minladi.

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, korxona daromadlari asosini uning foydasi tashkil etadi. Foyda miqdorini ko'paytirishda moddiy omillardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Moddiy omillardan xususan, zamonaviy jihozlar samaradorligini oshirish va sifatli xom ashyodan foydalanib foyda miqdorini ko'paytirishga erishish korxonani ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish rejasining asosiy yo'nalishidir. Moddiy omillarning nafaqat miqdor jihatdan ko'paytirib, balki uning sifat jihatlariga ham e'tiborni kuchaytirish, ya'ni jihozlarning bekor turish vaqtlarini kamaytirish hisobiga ular ish unumdorligini oshirish va xom ashyo va materiallar sarf me'yorini iqtisodiga erishish bir tomondan foyda hajmini qo'shimcha mablag'larsiz ko'paytirish, ikkinchi tomondan esa mahsulot tannarxini kamaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Mahsulot tannarxini kamaytirish uning narxini ham pasaytirish imkoniyatini ham beradi. Bu bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Uning **asosiy maqsadini** moddiy omillardan tejamli foydalanish asosida foyda hajmini ko'paytirish chora tadbirlarini ishlab chiqish tashkil etadi. Bunga ko'ra quydagi vazifalarni hal qilish belgilanadi:

- foyda va moddiy omillar tushunchalarini nazariy jihatdan asoslash;
- moddiy omillardan foydalanish holatini baholash;
- moddiy omillardan oqilona foydalanish asosida foydani ko'paytirish yo'nalishlarini belgilash.

Bitiruv malakaviy ish tarkibi "Kirish", 3 ta bob, "Xulosa" qismlaridan hamda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Bundan tashqari barcha boblarning mohiyati bir nechta tarkibiy qismlarga bo'linib alohida yoritilgan.

1-BOB. MODDIY XOM ASHYO OMILLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA FOYDA MIQDORINI OSHIRISNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Foyda tushunchasining mohiyati va uni oshirish ahamiyati.

Bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi bu foyda olishdir. Foyda ijtimoiy ishlab chiqarishni hamma bosqichlarining iqtisodiy kategoriyasidir. Foyda iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o'zining eng yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti davrida ko'tariladi. Foydani barpo etish, uni realizatsiya qilish bu kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishning, qiymat qonunining va xo'jalik yuritish uauli sifatida foydalanadigan xo'jalik hisobining obyektiv talabidir.

Kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarishning doimo kengayishini, uning texnikaviy darajasini muntazam ko'tarib turishni talab etadi. Buning uchun ishlab chiqarishda hamma vaqt foydaga erishilishi, realizatsiya qilinishi va undan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanish lozim.

Kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarishning doimo kengayishini, uning texnikaviy darajasini muntazam ko'tarib turishni talab etadi. Buning uchun ishlab chiqarishda hamma vaqt foydaga erishilishi, realizatsiya qilinishi va undan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanish lozim. Aynan ana shunday maqsadda foydaga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi, o'rganiladi va natijada korxonaning bu borada foydalanilmagan imkoniyatlari yuzaga chiqadi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani o'lchashga daxldor bo'lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlar, ya'ni foydani aniqlash va o'lchash – korxona o'z moliyaviy hisobotni tayyorlashda foydalaniladigan kapital konsepsiyasi hamda kapitalning saqlanishiga bog'liq bo'ladi.

Moliyaviy natijalar tahlilda daromad va xarajatlarning o'zaro farqlanishidagi holatga baho beriladi. Moliyaiy natijalar foyda va zararlarning shakllanish qatorlari bo'yicha o'zgarishlari o'rganiladi. Foyda va zararlarning omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yo'lga qo'yishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajasini xarakterlovchi rentabellik ko'rsatkichi va uning omilli tahlili o'tkaziladi.

Ishlab chiqarish korxonalari faoliyati moddiy va mehnat xarajatlari bilan bog'liq. Xarajatlarning asosiy xissasi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishning jami xarajatlari mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi va unga qarab ishlab chiqarilayotgan mahsulot korxonaga qancha tushayotganini aniqlash mumkin.

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida korxonalarning moliyaviy natijalarini tahlil etishda tahlilning eng asosiy vazifalari bo'lib quydagilar hisoblanadi:

- korxonaning foydalilik darajasiga baho berish;
- korxonaning moliyaviy natijalarining tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- biznes rejada belgilangan foydalilik darajasiga erishilganligi va unga ta'sir etgan omillarni o'rganish hamda baho berish;
- foydaning shakllanishi va ishlatilishining asoslanganligini tekshirish;
- foydaning ko'paygan yoki kamayganligiga mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan va boshqa faoliyatlardan erishilgan natijaning ta'sir etishini aniqlash;
- korxonaning yalpi foydasi va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan foydaning shakllanishiga va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonaning sof foydasi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda baho berish;
- sof foydani ko'paytirish yo'nalishlarini belgilab berish;

- korxonaning rentabellik ko'rsatkichlarini o'rganish va ularga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonaning umumiy rentabellik darajasini oshirish chora tadbirlarini ishlab chiqish va hokazolar.

Yuqorida takidlangan foyda miqdoriga ta'sir etuvchi omillar tasnifi va ahamiyati haqida quyida batafsil to'xtalib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 – yil 5 – fevraldagi 54 – son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom”ga muvofiq korxonalarning xarajatlari quydagi guruhlariga bo'linadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada xisobga olinadigan hamda davr xarajatlari kiritiladigan xarajatlar;
- korxona umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan korxonaning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlar;
- favqulotda zararlar.

Quyida foydani shakllantirish manbalari haqida batafsilroq to'xtalib o'tiladi.

Iqtisodiyotning erkinlshtirilishi sharoitida korxonalar xo'jalik faoliyatini baholovchi asosiy mezon – foyda.

Foyda – bu murakkab iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi, u asosan qo'shimcha qiymatni yaratish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Korxona foydasining shakllanish manbalari – ular xo'jalik faoliyati natijasida olinadigan daromadlardir:

- sotishdan olingan sof tushum ;
- asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari);

- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;
- favqulotda foyda.

Sotishdan olingan sof tushum mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan pul tushumidan qo'shilgan qiymat va aksiz solig'i hamda eksport boj qo'shilmasini chiqarish yo'li bilan aniqlanadi. Unga tovarlarning qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi.

Korxonalarining asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quydagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagana qarzlar va xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari, shuningdek yetkazilgan zararlarni undirish bo'yicha daromadlar;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda;
- ishlab chiqarish va mahsulot (ish, xizmat)larni sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan renta daromadi, korxona huzuridagi oshxonalardan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi boshqa daromadlar;
- korxonaning asosiy fondlarini va boshqa mol – mulklarini sotishdan olingan daromadlar;
- da'vo bildirish muddati o'tgan kireditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;
- tovar – moddiy boyliklarni qayta baholash;
- davlat subsidiyalaridan daromadlar;
- xolisona moliyaviy yordam;
- boshqa operatsion daromadlar.

Korxonalar moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadlarga quydagilar kiradi:

- olingan royaltlar va sarmoya transferti;
- Respublika hududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingan daromad,

aksiyalar bo'yicha dividendlar va obligasiyalar hamda korxonaga tegishli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;

- mol – mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish) ;
- valyuta schyotlari, shuningdek chet el valyutalaridagi operatsiyalar bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari;
- sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, shu'ba korxonalariga va boshqalarga) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar;
- moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Korxonalarning favqulodda foydasi – bu ko'zda tutilmagan tasodifiy tusga ega bo'lgan hodisa yoki korxonaning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tUSDagi operatsiyalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning kamdan – kam bo'ladigan moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

Korxonalarning, yuqorida keltirilgan, xo'jalik faoliyatidan olingan daromatlari va qilingan xarajatlari asosida foydaning quyidagi beshta ko'rsatkichlari aniqlanadi:

Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda – bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut ko'rinishida bo'ladi:

$$YaF = SST - IT \quad (1)$$

Bu yerada:

YaF – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda – bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar ko'rinishida bo'ladi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ \quad (2)$$

Bu yerda:

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan koʻrilgan boshqa zararlar.

Umumxoʻjalik faoliyatidan olingan foyda – bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan koʻrilgan daromadlar va minus xarajatlari koʻrinishida boʻladi:

$$UF = AFF + MD - MX \quad (3)$$

Bu yerda:

UF – umumxoʻjalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari.

Soliq toʻlangungacha olingan foyda – bu umumxoʻjalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulotda (koʻzda tutilmagan) vaziyatlardan koʻrilgan foyda va minus zarar koʻrinishida boʻladi:

$$STF = UF + FF - FZ \quad (4)$$

Bu yerda:

STF – soliq toʻlangungacha olingan foyda;

FF – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlardan koʻrilgan zarar.

Yilning sof foydasi – bu soliq toʻlangandan keyin korxona ixtiyorida qoladigan foyda. U soliq toʻlangungacha olingan foyda (daromad)dan toʻlanadigan soliqni va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va toʻlovlarni chiqarib tashlagan holda aniqlanadi:

$$SF = STF - DS - BS \quad (5)$$

Bu yerda:

SF – sof foyda;

DS – foyda (daromad)dan to'lanadigan soliq;

BS – boshqa soliqlar va to'lovlar.

Demak, foyda korxona xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlarning xarajatlardan ortiq bo'lganligidan, ya'ni ijobiy moliyaviy natijaga erishilganligidan darak beradi. Uning miqdori, asosan ikkita ko'rsatkichga mahsulot narxi va uni ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq. Ishlab chiqarish xarajatlarida salmoqli ulushni moddiy omillar egallaydi. Moddiy omillar ishlab chiqarish xarajatlarida moddiy xarajalar ko'rinishida ifoda etiladi. Moddiy omillar tarkibini esa asosan asosiy ishlab chiqarish jihozlari va xom ashyo materiallari tashkil etadi. Navbatdagi bo'limda moddiy omillar, ular tarkibi hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha fikr yuritiladi.

1.2 Moddiy omillarning iqtisodiy mohiyati va ularning tarkibi.

Milliy iqtisodiyotimizda erishilgan va erishilayotgan ijobiy natijalar negizida avvalo bozor isloxlari va mamlakat sanoat korxonalarini modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan modeli va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturini bosqichma – bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli, izchil va qat'iy xarakterlar turganligi hech kimga sir emas.


Ko'rilayotgan qat'iy chora – tadbirlar, amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarning natijalari mamlakatda ishlab chiqarilayotgan YaIM ning tarkibiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar va ulardan ko'zlangan maqsadlarning bajarilishi yengil sanoatning jadal rivojlanishida o'z ifodasini topmoqda.

Zamonaviy texnika va uskunalar bilan jixozlangan korxonalarning ishga tushirilishi, xorijiy investorlar bilan hamkorlikda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi, jahon bozoriga raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni eksport qilish hajmining sezilarli darajada ortib borayotganligi

yengil sanoat korxonalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berayotganligini ko'rsatmoqda.

Demak, moddiy ne'matlarini yaratish inson hayoti, uning yashashi va kamol topishi uchun hamma vaqt moddiy asos hisoblanadi. Ma'lumki har qanday jamiyatda ishlab chiqarishning amalga oshishi, eng avvalo, uning ro'y berishi uchun bu jarayonda qatnashadigan turli omillar bo'lishini taqozo etadi. Bunday omillar tarkibini qo'yidagi chizma ko'rinishida tasavvur etish mumkin.




1.1 – chizma. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan omillar tarkibi.

Bu omillar tarkibida eng asosiylaridan biri moddiy omillar hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda aytilganidek moddiy omillar – ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha moddiy shakllardagi vositalardir.

Moddiy omillar tarkibiga xom ashyolar, materiallar, mashina – mexanizm, asbob – uskuna, qurilma – inshootlar, binolar va boshqalar kiradi, ular ishlab chiqarish vositalari deb ham yuritiladi. Ularning ma'lum narxlarda hisoblanib, pulga aylantirilgan qismi ya'ni, qiymat – pul shakli ishlab chiqarish *fondlari* deb yuritiladi.


Ma'lumki moddiy omillar o'z holicha ishlab chiqarish jarayonida ishtirok eta olmaydilar, bu jarayon moddiy omillar bilan mehnat omillarining birikuvi natijasida sodir bo'ladi. Demak, ishlab chiqarish jarayoni yuz berishi uchun barcha omillar bir – biridan ajralmagan holda ishtirok etadilar. Moddiy omillar tarkibini taqriban qo'yidagi chizma shaklida ko'rish mumkin.



1.2 – chizma. Ishlab chiqarishning moddiy omillari tarkibining chizmasi.

Bu erda biz moddiy omillar tarkibiga mehnat sharoitlarini ham kiritdik, sababi iqtisodiyotni erkinlashtirish tamoyiliga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy jarayonlar tarkibida moddiy omillar (asosiy vositalar va aylanma mablag'lar) bilan birgalikda mehnat sharoitini ham qo'shishni lozim topdik, sababi ular ham ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiladi va korxonaga xuddi moddiy omillar kabi ma'lum darajada foyda keltiradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy jarayonlarni sodir etish uchun moddiy omillar bilan birgalikda jonli mehnatning (mehnat omillari yoki mehnat salohiyati) ham ishtirokini ta'minlash lozim bo'ladi. Shundagina, ishlab chiqarish jarayoni sodir bo'lib, yangi mahsulot yaratilishiga erishish mumkin.



1.3 – chizma. Ishlab chiqarish omillari tarkibining chizmasi.

Ana shu nuqtai – nazardan olib qaralganda omillar tarkibining chizma yuqoridagi ko'rinishi bo'ladi.

Ammo bozor munosabatlari sharoitida korxonada iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishi va unga ma'lum darajada foyda keltirishi uchun moddiy va mehnat omillari bilan birgalikda nomoddiy aktivlar ham ishtirok etadi. Ma'lumki, nomoddiy aktivlar tarkibiga mualliflik xuquqi, patentlar, "nou xau", savdo belgisi, litsenziyalar kabi tushunchalar qiymati kiradi. Bular moddiy bo'lmasada, korxonaga xuddi moddiy omillar kabi ma'lum darajada foyda keltiradi. Ammo ularni korxonaning moddiy omillari tarkibiga kiritish mumkin emas, chunki ular shakli, mazmuni va mohiyati jixatidan nomoddiydir.

Har bir mamlakatning qudrati, iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishi, jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirilishi shu mamlakat omillari, ayniqsa, asosiy vositalar va aylanma mablag'larning miqdori va sifati bilan belgilanadi.

Mamlakat va uning sanoati, boshqa tarmoqlari, korxona (firma) lari qanchalik ko'p omillarga ega bo'lsa, u shunchalik qudratli va rivojlangan bo'ladi. Agar u ana shu omillardan to'la – to'kis, oqilona foydalana olsa, albatta, buyuk davlatga aylanadi.

Sanoat ishlab chiqarishi faoliyatida asosiy vositalarning alohida o'rni bor. Chunki ularsiz birorta ishni bajarish, xizmat ko'rsatish va mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas.

Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish jarayonida mehnat buyumlari, mehnat qurollari (mehnat vositalari) va inson mehnati ishtirok etadi. Mehnat buyumlariga xom – ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i, elektr quvvati, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlari va boshqalar, mehnat vositalariga esa, mashina va mexanizmlar, asbob – uskunalar, yuk tashuvchi va uzatuvchi vositalar, kompyuter va laboratoriya anjomlari, bino va inshootlar kiradi.

Mehnat buyumlari va vositalarining birgalikda qiymat shaklida ifodalanishi ishlab chiqarish fondlarini tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida qatnashish darajasiga ko'ra asosiy vositalar va aylanma mablag'larga ajratiladi. Mehnat

qurollari asosiy vositalarni, mehnat buyumlari esa aylanma mablag'larni tashkil etadi.

Asosiy ishlab chiqarish vositalari deb ishlab chiqarish jarayonida uzoq davr bevosita va bilvosita qatnashadigan, moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan hamda tabiiy shaklini saqlagan holda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga asta – sekin, to'zishiga qarab o'tkazib boradigan mehnat vositalariga aytiladi. Ular ish bajarishda, xizmat ko'rsatishda va mahsulot ishlab chiqarishda qatnashadilar, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun sharoit yaratadilar, mehnat buyumlari va tayyor mahsulotlarni saqlash va ularni bir o'rindan ikkinchi o'ringa tashish kabi ishlarni bajarish uchun xizmat qiladi.

Asosiy vositalar foydalanish maqsadiga, ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita qatnashishiga qarab, ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan va qatnashmaydigan vositalarga ajratiladi.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan asosiy vositalarning maqsadi moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etishga qaratilgan bo'lsa, ishlab chiqarishda qatnashmaydigan asosiy vositalarning maqsadi xodimlarning moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

Sanoatning asosiy ishlab chiqarish vositalari mamlakat milliy boyligining muhim qismini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich mustaqillik yillarida yildan – yilga oshib bormoqda. 1991 – 2007 – yillar mobaynida sanoat ishlab chiqarishining asosiy vositalari 35 marta o'sdi.

Asosiy vositalarni hisoblash, tahlil qilish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni rejalashtirish va bashorat qilish maqsadida ularni guruhlariga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda asosiy vositalar turli tasnifga muvofiq va ishlab chiqarish vazifasining xilma – xilligi va tabiiy – moddiy belgilarga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Zarur mehnat sharoitlarini ta'minlaydigan bino va me'morlik – qurilish ob'ektlari. Binolarga sexlarning ishlab chiqarish korpuslari, garajlar, omborxonalar, ishlab chiqarish xonalari va laboratoriyalar kiradi.
2. Inshootlar – ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur va mehnat buyumlari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmagan birorta texnik vazifalarga belgilangan muhandislik – qurilish ob'ektlari (nasos stansiyalari, tunnellar, ko'priklar va h.k.).
3. Har xil energiya, suyuq va gazsimon moddalar uzatadigan uzatuvchi uskunalar.
4. Mashinalar va asbob – uskunalar.

Shu jumladan:

- energiyani, suyuq va gazsimon moddalarni ishlash va almashtirishga mo'ljallangan kuch mashinalari va asbob – uskunalar (generatorlar va gazogeneratorlar, elektrogeneratorlar, bug' qozonlari, havo kompressorlari);
 - ishchi mashinalar va asbob – uskunalar. Ular mehnat buyumlariga bevosita ta'sir o'tkazadilar. Bularga dastgohlar, presslar, konveyerlar va boshqa turli yordamchi asbob – uskunalar: o'lchov va to'g'rilash asbob – uskunalari, laboratoriya asboblari, hisoblash mashinalari, kompyuterlar kiritiladi.
5. Transport vositalari.
 6. Har xil asboblar.
 7. Ishlab chiqarish inventarlari.
 8. Xo'jalik inventarlari.
 9. Boshqa asosiy vositalar.

Mehnat buyumlariga ta'sir etish darajasiga qarab asosiy vositalar faol va nofaol vositalarga bo'linadi.

Faol asosiy ishlab chiqarish vositalariga mehnat buyumlari shaklini o'zgartiruvchi, ya'ni bevosita ta'sir etuvchi vositalar (mashinalar, asbob – uskunalar, tekhnologik liniyalar, o'lchov va to'g'rilash asboblari, transport vositalari) kiradi.

Nofaol asosiy ishlab chiqarish vositalariga mehnat buyumlariga bevosita ta'sir etuvchi, ya'ni ishlab chiqarish jarayonining normal o'tishiga kerakli sharoit yaratuvchi ishlab chiqarish vositalari kiradi (bino va inshootlar, h.k.).

Asosiy vositalar doimo yangilanishda bo'lishi taqozo etiladi, sababi ular vaqt o'tishi bilan ham jismoniy ham ma'naviy jihatdan eskiradi va ularning yangilanishi mehnat unumdorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu sababli ular ma'lum muddatda baholanib turishlari talab etiladi.

Asosiy ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib, asta – sekin ishdan chiqib boradi. Shuning uchun bu vositalarga baho belgilashda ularning ishdan chiqqan va eskirgan qismi hisobga olinadi. Bunda aynan shu sababli asosiy vositalarni qoldiq qiymati orqali baholash ham qo'llaniladi. Ularning qoldiq qiymati ikki yo'l bilan aniqlanadi: a) asosiy vositalarni ishdan chiqqan qismini ularning dastlabki to'la qiymatidan ayirib tashlash orqali aniqlangan qiymat; b) asosiy vositalarni ishdan chiqqan qismini ularning qaytadan tiklangan qiymatidan ayirib tashlash orqali aniqlangan qiymat.

Asosiy vositalar juda eskirib, yaroqsiz holga kelgan, qaytadan tiklash, kapital ta'mirlash yoki modernizatsiya qilish natija bermaydigan hollarda ularni ishlab chiqarishdan olib tashlash zarur bo'lib qoladi. Bunday hollarda ishlab chiqarishdan olib tashlash bahosi aniqlanadi. Bu baho ishdan chiqqan, ishlab chiqarishdan chiqarib tashlanadigan asosiy vositalarni (temir – tersak narxida) realizatsiya qilish bahosidir.

Ishlab chiqarishda qatnashadigan asosiy vositalar yillar o'tishi bilan eskiradi va o'z sifatini yo'qota boradi: jismoniy va ma'naviy jihatdan eskiradi.

Jismoniy eskirish deganda, asosiy vositalarning ishlab chiqarish

jarayonida qatnashishi natijasida butunlay yoki qisman to'zishi, yemirilishi tushiniladi. Ma'lum vaqt o'tgach, jismoniy jihatdan butunlay yoki qisman yaroqsiz bo'lib qolgan mehnat qurollarini yangisiga almashtiriladi yoki bo'lmasa modernizatsiya qilinadi yoxud ayrim qismlari kapital ta'mirlanadi. Jismoniy

eskirish natijasida asosiy vositalarning qiymati yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki tayyorlangan mahsulot qiymatiga ko‘chadi.

Korxonalarda faqat ishlayotgan mashina va asbob – uskunalargina emas, balki bekor turganlari ham to‘ziydi (yemiriladi). Mashina va asbob – uskunalarning jismoniy eskirish darajasi ularning xizmat muddati va to‘zish (yemirilishi) darajasiga nisbatan aniqlanadi.

Fan – texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligi o‘shishi tufayli ishlab turgan mashina va asbob – uskunar qiymatining kamaytirilishi, nisbatan unumli va tejimli yangi mashinalarning va asbob – uskunalarning ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida ishlatilayotgan mashinalarning jismoniy yemirilish muddati tugamasdan turib qadrsizlanishi – asosiy vositalarning ma’naviy eskirishi deb aytiladi. Ma’naviy eskirish vositalarning bahosini vaqti – vaqti bilan qayta ko‘rib chiqishni shart qilib qo‘yadi. Eskirgan asosiy vositalarni yangilari bilan almashtirish rejali ravishda eng kam mehnat va mablag‘ sarf qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida asta – sekin eskirib, o‘z qiymatining ma’lum qismini amortizatsiya sifatida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot qiymatiga oz – ozdan ko‘chirib boradi.

Asosiy vositalar moddiy yoki jismonan va ma’nan eskiradi. Moddiy eskirish mehnat vositalaridan foydadanish jadalligi va ularning korxonada ishlatilgan muddatlari bilan belgilanadi. Ma’naviy eskirish fan va texnika taraqqiyoti natijasida mehnat vositalarining arzonlashuvi hamda iqtisodiy jihatdan mukammal bo‘lgan yangi mehnat vositalarining yaratilishi va joriy qilinishi bilan bog‘liq. Amortizatsiya me’yori asosiy vositalar turiga, xizmat qilish muddatiga ko‘ra tabaqalashtiriladi. Amortizatsiya qiymati ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga kiritib boriladi. Mahsulot sotilgach, bu qiymat amortizatsiya ajratmalari ko‘rinishida eskirgan jihozlar o‘rniga yangisini sotib olish uchun zarur bo‘ladigan mablag‘lar summasi tarzida jamg‘ariladi.

Amortizatsiya ajratmalari – mahsulot tannarxiga kiritiladigan asosiy vositalar amortizatsiyasi summasi; asosiy vositalarni qisman tiklash (kapital ta'mir va yangilash) va to'liq tiklash (renovatsiya) vositalarini yaratishga xizmat qiladi. Amortizatsiya ajratmalari me'yorlari asosiy vositalar qiymatiga mutanosib, ya'ni taxminiy foydalanish muddatiga tekis taqsimlanishi yoki kamayib boruvchi balans usulida – jadallashtirilgan tartibda hisoblanishi mumkin. Jadallashtirilgan tartibda foydalanishning birinchi yilida amortizatsiya me'yori 2 marta oshiriladi, ikkinchi yili qoldiq qiymatining 20 foizi miqdorida va shu tarzda ajratmalar nazarda tutiladi va bu ish shu tarzda davom ettiriladi. Natijada asosiy vositalar qiymatining $\frac{2}{3}$ qismi ular xizmat muddatining yarmidayoq amortizatsiyalanadi. Amortizatsiya me'yorlarining pasaytirilishi asosiy vositalarning yangilanishi sekinlashtiradi, oshirilgan me'yorlar mahsulot tannarxini qimmatlashtiradi. Shu sababli amortizatsiya ajratmalari davlat tomonidan tartibga solinadi. Amortizatsiya ajratmalari ta'minlanishi kerak bo'lgan asosiy shart asosiy vositalarni eskirishining to'liq qoplashi va ularning takror yaratilishiga erishishdir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat amortizatsiya ajratmalari normativlarini belgilab, jadallashtirilgan amortizatsiya orqali tadbirkorlarga soliqqa tortiladigan foyda summasini kamaytirishga imkoniyat yaratib beradi. Ayni paytda asosiy vositalar qiymatini hisobdan chiqarishni tezlatish tadbirkorni asosiy vositalarning ma'naviy eskirishi bilan bog'liq ehtimoli bo'lgan zarar ko'rishdan saqlaydi, yangi texnika va texnologiyani tezroq joriy etishga rag'batlantiradi.

Amortizatsiya ajratmalari asosiy vositalarning o'zini yoki uning ba'zi qismlarini yangilash vaqti kelguncha shu shaklda ma'lum fondga jamg'arilib turiladi va bu fondni amortizatsiya fondi deb ataydilar. Demak, amortizatsiya fondi – amortizatsiya ajratmalari hisobiga shakllanadigan maxsus fondidir.

Amortizatsiya normasining darajasi asosiy vositalarning eskirgan qismini tiklash uchun omillar hajmini aniqlaydi. Amortizatsiya normasi bilan asosiyvositalarning aylanish tezligi belgilanadi va ularni qayta ishlab chiqarish jarayoni jadallashtiriladi.

Muomala fondlariga jo‘natishga yuklangan mahsulot va davlat bankidagi pul mablag‘lari kiritiladi.

Korxonaning aylanma mablag‘lari kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Chunki ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga sharoit yaratib beradilar. Aylanma mablag‘lari kamayib ketgan korxona (firma) lar bankrotlikka yuz tutadilar.

Tashkil etish usuliga qarab aylanma mablag‘lar normallashtiriladigan va normallashtirilmaydigan mablag‘larga bo‘linadi.

Normallashtiriladigan aylanma mablag‘lar korxonaning uzluksiz ishlashini ta‘minlash uchun kerak bo‘lgan mablag‘larning minimal miqdoridir.

Aylanma mablag‘larning aylanish davri 3 qismdan iborat bo‘ladi:

1. Mablag‘larning ishlab chiqarishdagi jamg‘arma shakli.
2. Ishlab chiqarish jarayonidagi shakli.
3. Tayyor mahsulot yoki hisob – kitob schyotidagi shakli.

Normallashtirishning asosiy vazifasi ishlab chiqarish jamg‘armalarini, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini, tayyor mahsulot qoldig‘ini aniqlashdan iborat.

Normalarga binoan ishlab chiqarish jamg‘armalari rejalashtiriladi. Ularning miqdori korxonalarda kamroq, lekin ishlab chiqarish jarayoniga yetarli bo‘lishi kerak.

Har bir korxona aylanma mablag‘larni saqlash va ulardan oqilona foydalanishni va ularning aylanishini tezlashtirishni ta‘minlashi kerak. Faqat shundagina u samarali ishlagan bo‘ladi. Aylanma mablag‘larning iqtisodiy samaradorligi ularning doiraviy shaklda aylanishining tezlashishidir. Bunga erishilganda ortiqcha mablag‘larning bo‘shashiga va ulardan boshqa maqsadlarda foydalanishga sharoit yaratiladi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanishni yaxshilash mavjud xom ashyo va materiallar bilan ishlab chiqarish ko‘lamini yuqori darajaga ko‘tarish, tarmoqlar o‘rtasida yuqori tejamli nisbatlarni (proporsiyalarni) belgilash, ijtimoiy mehnat

unumdorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga imkon yaratadi. Ishlab chiqarishni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish xom – ashyo va materiallardan, yoqilg'i va elektr – energiyasidan oqilona foydalanishni talab etadi.

Moddiy oomillarni tejash maqsadida ko'p omillardan foydalanish mumkin. Omillarni tejashning asosiy ishlab chiqarish – texnik omillariga ishlab chiqarishning texnik darajasini uzluksiz oshirish, texnologik jarayonlarni mukammallashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni yaxshilash, tejamkorlikni rag'batlantiruvchi dastak va stimullardan keng foydalanish kiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, korxona faoliyatining samaradorligi va uning iqtisodiy o'sishi barcha omillardan, ayniqsa moddiy omillardan foydalanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Ammo shuni e'tirof etish zarurki, moddiy omillarning tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar va aylanma mablag'lar bir – biriga bog'lanmagan holda alohida harakatlana olmaydilar, sababi bog'lanmagan holda foydalanish korxonaning kutilayotgan texnik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlay olmaydi. Demak, barcha omillarning birgalikdagi harakati va o'zaro bir – biriga ta'siri natijasida ishlab chiqarish jarayonlari yuz beradi hamda rejalashtirilgan maqsadga erishiladi.

1.3 Xomashyo materiallar moddiy omillarning muhim elementi sifatida.

Respublikamizda qayta ishlovchi barcha sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi elementlardan biri xomashyodir, chunki xomashyosiz hech qanday mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas.

Xomashyo material deb, qazib olish yoki ishlab chiqarish uchun ma'lum darajada mehnat sarflangan va shu mehnat natijasida bir qadar o'zgargan mehnat buyumiga, matoga aytiladi. Xom ashyo asosiy va yordamchi materiallarga bo'linadi.

Asosiy xom ashyo — tayyor mahsulotning moddiy asosini tashkil qiluvchi mehnat buyumidir. Tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi yoki asosiy xom ashyoni qayta ishlashga zarur sharoit yaratib beruvchi qolgan barcha mehnat buyumlari *yordamchi materiallar* deb ataladi.

Mehnat buyumlarining mahsulot ishlab chiqarishda qay tarzda qatnashishiga qarab ular ham xom ashyo (asosiy xom ashyo), ham yordamchi material bo'lishi mumkin.

Xom ashyo keng miqyosda iste'mol buyumlari hamda ishlab chiqarish mahsulotlari olish uchun ishlatiladigan tabiiy materiallardan iborat. U quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- miqdori jihatidan yetarli bo'lishi;
- qazib olish arzon va oson bo'lishi;
- texnologik jarayonlar oson borishi kerak.

Har bir xom ashyo mehnat buyumidir, lekin har bir mehnat buyumi xom ashyo emas. Mehnat buyumi mehnat vositasi bilan ma'lum darajada o'zgargandan keyingina xom ashyoga aylanadi. Yer ostidagi foydali qazilmalar, yovvoyi hayvonlar, daraxtlar vahokazolar xom ashyo bo'lmay, balki potentsial tabiiy boyliklardir.

Mehnat vositasi yordamida ovlangan hayvonlar, qazib olingan ma'danlar, kesilgan daraxtlar va boshqalar xom ashyo hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida bir yoki bir necha bosqichda qayta ishlangan bo'lsa-yu, lekin tayyor mahsulot sifatida iste'mol qilina olmasa, u chala mahsulot, ya'ni yarimfabrikat deb ataladi. Hayotda yarimfabrikat uni ishlab chiqargan ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaraganda tayyor maxsulot, iste'mol qiluvchi ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaraganda xom ashyo hisoblanadi.

Xomashyo resurslarini xomashyodan farq qilmoq kerak. Xom ashyo resurslariga mamlakatdagi foydali qazilmalar konlari, o'rmon maydonlari, uy hayvonlari va shu kabi tabiiy boyliklar kirsak, ular qazib chiqarilgan yoki ishlab chiqarish uchun mehnat sarflangandagina xom ashyoga aylanishi mumkin.

Xom ashyo ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementi sifatida sanoat ishlab chiqarishiga va uning iqtisodiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarida xom ashyo va yoqilg'i xarajatlari ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar hajmida eng katta salmoqqa egadir. Shuning uchun sanoat korxonalari faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari ko'p jixatdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xom ashyo va yoqilg'i xarajatlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Sanoat mahsuloti tannarxida xom ashyo, yordamchi materiallar va yoqilg'i xarajatlari butun sanoat bo'yicha o'rtacha 70-75 foizni tashkil etadi. Binobarin, xom ashyoni tejab ishlatish sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishda, ishlab chiqarish quvvatlaridan yaxshi foydalanishda va ishchilar mehnatining unumdorligini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Xom ashyo materiallar ko'p sarflanadigan tarmoqlarda xom ashyo materiallardan oqilona foydalanish mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy manbai inobatga olsak, u holda xom ashyo resurslarni tejash tadbirlarini amalga oshirish qo'shimcha pul xarajatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bunday xarajatlar ikki xil xususiyatga ega:

Kapital xarajatlari sifatida — materiallar xarajatini kamaytirishni qoplash uchun zarur bo'lgan yangi uskunalarni o'rnatish uchun.

Xom ashyo materiallar sifatini oshirish uchun sarflanadigan xarajatlar sifatida. Qo'shimcha pul xarajatlari mahsulot tannarxini kamaytiradi va shuning

hisobiga uni tejash mumkin. Materiallarni tejash, shuningdek, uskunalardan foydalanishni yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Shuning uchun xarajatlar samaradorligini aniqlashda faqatgina xom ashyo tejaminigina emas, balki uskuna va ish haqidan olingan tejamni xam aniqlash kerak.

Mehnat buyumlarini sarflash normalarini pasaytirishdan olinadigan tejam quyidagiformula asosida aniqlanadi:

$$E = (N_1 - N_2) * P_{ts} \quad (6)$$

Bu yerda:

E — reja bo'yicha yillik tejam;

N₁ va **N₂** — tadbir joriy qilinguncha va qilingandan keyingi mahsulot birligiga material sarflash normalari;

P — mahsulot ishlab chiqarishning yillik miqdori;

ts — mahsulotga sarflanadigan xom ashyo materiallar bahosi.

Mehnat buyumi sifatini yaxshilashga sarflangan xarajatlar samaradorligi yangi materiallar joriy qalingunga qadar va qilingandan keyin mahsulot tannarxlarini solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Istiqlol va bozor iqtisodiyotiga kirib borish mamlakatning xom ashyo resurslarini ko'paytirishga va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga keng yo'l ochdi. Davlatning respublika sanoati xom ashyo bazasi borasidagi xo'jalik siyosati qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining yuqori sur'atlar bilan taraqqiy etishini ta'minlovchi xom ashyo resurslarining jadallashtirilgan rivojlanishini ta'minlashdir. Demak, erkin bozor iqtisodiyotida korxonalarning katta daromad olishlari o'z xom ashyo materiallar bo'yicha xarajatlariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarib, belgilangan muddatlarda sotib, pul tushumlari barcha xarajatlarni qoplab, foyda ko'rish asosiy maqsad bo'lib qolmog'i kerak. Shunday ekan, xom ashyo materiallari bo'yicha xarajatlar va sarf me'yorlarini imkon qadar, qat'iy tejamkorlik tizimini joriy qilish

orqali mahsulot tannarxini kamaytirish hisobidan korxonalarning faoliyatini barqarorlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.4. Xom ashyodan oqilona foydalanish omillari.

O'zbekiston sanoati o'zining juda katta xomashyo bazasiga ega, mustaqillik va bozor iqtisodiyotiga kirib borish mamlakatning xomashyo resurslarini yanada ko'paytirishni va mavjud tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni talab etadi. Sanoat xomashyo bazasi rivojining asosiy yo'llari quyidagilardan iborat: sun'iy materiallarning turli xillarini yaratish, xomashyo yangi manbaalarini aniqlash bo'yicha geologik-qidiruv ishlarini kengaytirish, undiruvchi sanoat tarmoqlarini tezlik bilan rivojlantirish, tovaradorlik qobiliyatini kuchaytirish va hokozolar.

Xom ashyo resurslaridan foydalanishda tejamkorlik tamoyilidan to'la-to'kis foydalanish hozirgi davrning eng muhim muammosi hisoblanadi. Shu sababli, xom ashyodan oqilona foydalanish maqsadida uni qayta ishlash jarayonida tegishli sanoat tarmog'i uchun maqsadga muvofiqligini aniqlash, xom ashyo materiallarini dastlabki qayta ishlash va boyitish, xom ashyodan kompleks foydalanish, xom ashyo materiallardan ikkinchi marta foydalanish bo'yicha tadbir-choralar amalga oshirilishi zarur. Bu chora – tadbirlarni amalga oshirishda fan-texnika taraqqiyoti, ayniqsa, kimyolashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish, tashkilotchilik, tejamkorlik va uni rag'batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har bir davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun, xom ashyo resurslari tekin emas. Ular o'z maqsadlariga erishishda strategiya va taktikadan foydalanadilar. Bundan ko'zlangan maqsad, ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xom ashyo material xarajatlarini kamaytirish va shu orqali foydani ko'paytirishdir. Izlanishlar qo'llanilgan strategiya va taktikaning xom ashyo xarajatlarini kamaytirishdagi so'nggi bosqichi va muqobil yo'li resurslar tejamkorligi ekanligini ko'rsatmoqda.

Xom ashyo resurslarni tanlash muqobilligi undan foydalangan sohalarda quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- xarajatlarning kamayishi va ishlab chiqarilgan mahsulot sifatining oshishi;

- alohida tovarlar va mahsulotlar assortimenti bilan bozorga kirib boorish va o'z o'rnini egallash;
- mahsulot sifatida aniq ustunlikka erishish;
- iqtisodiyotdagi kabi texnologiyada ham peshqadamlik mavqeining o'sishiga intilish;
- dinamikani hisobga olgan holda mavjud xom ashyo resurslaridan yaxshiroq foydalanish va xo'jalik faoliyatidan foyda olish.

Muqobillik (bir-biriga zid ikki yo'ldan birini – yoki unisini, yoki bunisini tanlab olish zaruriyati) shuningdek, xom ashyo resurslardan foydalanish strategiyasi va taktikasining tarkibiy qismi hisoblanib, ishlab chiqarishda iqtisodiy tejamkorlik va samaradorlik oshishiga olib keladi. Modomiki, strategiya va taktika moddiy, moliyaviy va boshqa xom ashyo resurslardan foydalanishda birinchi navbatda, xodimlardan tegishli bilim va ish malakani, xom ashyo resurslardan foylanishda masullikni, bozor iqtisodiyoti sharoiti shartlarini va fan-texnika yangiliklaridan voqiflikni, ilmiy tadqiqot va ularning yechimlarini teran anglashni talab qiladi.

Rejali iqtisodiyot sharoitida xom ashyo resurslar davlatga qarashli bo'lib, ularni bepul va qaytarib olmaslik qoidasi asosida hududlarga, tarmoqlarga va korxonalarga taqsimlanardi. Bozor iqtisodiyoti sharoiti xom ashyo resurslari materiallarga va ulardan foydalanishga bo'lgan talab kuchayayotganligi bois bunday vositalarni tejamkorlik bilan ishlatishni taqozo etmoqda. Sobiq ittifoqda barcha xom ashyo resurslari davlat tomonidan bepul taqsimlanganligi uchun resurslar tejamkorligi amaliyotda emas, balki xujjatlarda «tejalardi». Endilikda bu masala oldingidek, “yuqori” ning ko'rsatmasi bilan emas, har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning samaradorlikni oshirishga bo'lgan qiziqishi asosida hal etilmoqda.

Hozirgi sharoitda qaysi mahsulotni, qancha va kimga ishlab chiqarishgina emas, shu *bilan* birga bu mahsulotni ishlab chiqarishga qancha xom ashyo materiallar va mablag' talab qilinishi ham ko'pgina korxonalar uchun asosiy

masalaga aylanmoqda. Bu har bir korxonani bir tomondan, talabni qondirish, ikkinchi tomondan esa, xom ashyo resurslar xarajatining kam chiqimli yo'llarini axtarishga undaydi. Bulardan tashqari, har bir korxona uchun xarakterli bo'lgan normalashtirish va xom ashyo resurslarning pulliligi ham aynan shuni taqazo etadi.

Xomashyodan ratsional foydalanish — sanoat xomashyo bazasini kengaytirish va mustahkamlashning muhim manbaidir. Iqtisodiy nuqtai nazardan xom ashyo materiallaridan maqsadga muvofiq va ratsional foydalanishda ko'p jihatdan qayta ishlovchi sanoat tarmog'i yoki korxona uchun xom ashyo materiallarini to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega.

Xom ashyo mahsulot xususiyatini va sifatli texnologik jarayonni tanlashga va uning progressivlik darajasiga, mashinalardan va vaqtdan foydalanish darajasiga, ishlab chiqarish siklining uzunligi va umuman ishlab chiqarishning barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi paytda har bir sanoat tarmog'ida bir necha turdagi xomashyo materiallar qo'llaniladi. Ayrim tarmoq uchun qaysi xom ashyo materiallarni tanlash maqsadga muvofiq ekanligini aniqlash uchun turli xom ashyo materiallarni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha solishtirmoq zarur: solishtirma kapital xarajatlari; mehnat unumdorligi; mahsulot tannarxi; mahsulot sifati; mahalliy xom ashyodan maksimal foydalanish; kamyob bo'lmagan xom ashyo materiallaridan foydalanish; ishlatilmaydigan chiqindilardan foydalanish mumkinligi; sun'iy xom ashyo materiallardan foydalanish mumkinligi; xomashyo materiallarining progressiv texnologiya talablariga javob berishi; xomashyo materiallarining bo'lg'usi tayyor mahsulot sifat ko'rsatkichlariga **javob** berishi; ma'lum davrda muayyan tarmoqda qo'llashning xalq xo'jaligi nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqligi; ayrim hududlarning o'ziga xos xususiyatlari; ayrim tarmoqlardagi texnika taraqqiyoti kabilardan tashkil topgan.

Xomashyomateriallaridan to'liq va har tomonlama foydalanib, uning turli qismlaridan turli xil mahsulotlar olish uchun undan kompleks foydalanmoq kerak.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ishlab chiqarishning barcha va ayniqsa, ko'p material iste'mol qiluvchi tarmoqlarida moddiy xarajatlarni tejash katta ahamiyatga ega. Mahsulot birligiga ketadigan xom ashyo va materiallar miqdorini ular sifati, chidamliligi zarar yetkazmasdan kamaytirish bir xil miqdordagi xom ashyo materiallaridan ko'proq mahsulot olish va tarmoqlararo ishlab chiqarish aloqalarini takomillashtirish imkonini beradi.

Xom ashyo materiallarini tejash uchun kurash yangi texnikani joriy qilish va texnologiyani takomillashtirishga sharoit yaratadi, ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish esa, o'z navbatida, boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga sharoit yaratadi. Mahsulot birligiga sarflanadigan xom ashyo materiallari miqdorining kamayishi ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish, demakdir, chunki xom ashyo materiallari tarkibidagi moddiylashtirilgan mehnat hamda materiallarni tashish, ortish, tushirish va saqlash bilan bog'liq bo'lgan «tirik» mehnat miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga asosiy ishchilar sarflaydigan mehnat miqdori kamayadi, chunki kam materialni qayta ishlashga to'g'ri keladi. Xom ashyo materiallarini tejash mahsulot tannarxini kamaytirishning eng asosiy omilligini inobatga olsak, boshlang'ich xom ashyo materiallarini birinchi bor qayta ishlovchi tarmoqlarda xom ashyo materiallari birligidan tayyor mahsulot chiqishi ko'rsatkichidan, foydalaniladi ba'zi tarmoqlarda esa mahsulot birligiga sarflanadigan xom ashyo miqdori ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Qayta ishlovchi bir qator tarmoqlarda xomashyo materiallardan foydalanish koeffitsienti aniqlanadi. U xom ashyo materiallari, detal, uzal yoki mahsulotning sof og'irligini unga sarflangan material miqdoriga yoki sarflash normasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu koeffitsient birga qancha yaqin bo'lsa, shuncha yaxshi, chunki bunda materialdan shuncha to'liq foydalanilgan bo'ladi.

Xomashyo materiallarni tejashning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- mashina va boshqa mahsulotlar sifati oshgani holda ogirligining kamayishi;
- ishlab chiqarish yo'qotishlari va chiqindilarini har taraflama kamaytirish;

- xomashyo va materiallardan kompleks foydalanish;
- xomashyoning qimmatbaho kamyob turlari o'rniga tejimli, yangi materiallar qo'llash;
- xomashyodan qayta foydalanish.

Sanoat ishlab chiqarishida xomashyo va materiallarni tejashning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat:

- mashina va mahsulotlar konstruksiyasini yaxshilash;
- yangi texnika va progressiv texnologiyani joriy etish;
- texnologik jarayonlarni yaxshilash;
- xomashyoni kompleks qayta ishlash usullarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishni tashkil qilishni yaxshilash.

Mustaqillikni mustahkamlash, kelajagi buyuk davlatni qurish, iqtisodiy o'sishni izchil olib borish, ishlab chiqarish taraqqiyotini tezlashtirishni ilm-fansiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli ko'axonalarda xom ashyo va materiallarni sarflashning texnologik normalariga rioya qilish, ularni saqlashni to'g'ri yo'lga qo'yish, chiqindilar va yo'qotishlarni kamaytirish, zamonaviy va arzon materiallardan foydalanish, fan-texnika taraqqiyoti bilan hamnafas bo'lish katta ahamiyat kasb etadi. Biroq arzon materiallardan foydalanish doim ham korxona imkoniyatlari va hohishidan kelib chiqavermaydi va tashqi muhit, birinchi o'rinda ishlab chiqarishdagi hamkorlar, umumiy iqtisodiy barqarorlik va boshqa omillar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Korxonaga to'g'ri rahbarlik qilishda xom ashyo materiallari sarflash jarayonini chuqur tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Tahlil ishlab chiqarish xususiyatiga qarab o'zgaruvchi xom ashyo materiallaridan foydalanish ko'rsatkichlari asosida olib boriladi. Xom ashyo materiallaridan foydalanish darajasini to'g'ri tahlil qilish uchun ishlab chiqarishning barcha texnik-iktisodiy sharoitlarini ko'rib chiqish kerak. Xom ashyo materiallarini korxona qay darajada foydalanlanligi, sarf darajasi, uning asosiy faoliyati holati va yo'llarini aniqlash

maqsadida keyingi bobda “Akbarali” korxonasi misolida tahlil ishlarini amalga oshiramiz.

2-BOB. "AKBARALI" KORXONASIDA MODDIY XOM – ASHYO OMILLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.

2.1. Korxonada foyda miqdorini baholash.

Mamlakatimizda ayniksa yengil sanoat sohalarini modernizatsiyalash, unda yangi texnika va texnologiyani joriy etish, chet el investorlarini jalb

etish ustivor vazifalardan biri hisoblanib kelinmokda.

Shunday korxonalardan biri bu "A. Akbarali" mashuliyati cheklangan jamiyat xozirda yangi zamonaviy korxonalardan biri hisoblanib, asosan paxtadan ip va gazlama ishlab chigarishga muljallangan yirik korxona hisoblanadi.

2000 yil 15 dekabrda "A.Akbarali" mashuliyati cheklangan jamiyat rasman davlat vakolatli organlaridan yuridik shaxs sifatida № 498/12 son ruyxatga olingan. "A.Akbarali" mashuliyati cheklangan jamiyat rasmiy ruyhatdan utgan joyi Uzbekiston Respublikasi, Farg'ona shaxri bulib, manzili Fargona shaxar Istg'iklol kuchasi 50 uy.

Fargona davlat solik inspeksiyasidan ruyxatdan utgan identifikatsion rakami INN 203466512 bulib, uning hozirgi rahbari Parpiev X hisoblanadi.

"A.Akbarali" mashuliyati cheklangan jamiyatning xozirgi vagtda Farg'ona shahrida yirik yigiruv –tukuv fabrikalaridan biri hisoblanadi. Har bir korxonada xalgaro standart talablariga javob beradigan maxsulotlar ishlab chigariladi.

"A.Akbarali" mashuliyati cheklangan jamiyatning asosiy printsiplari:

- ragobatbardosh kadrlar;
- ishonch va xamkorlik;
- dustona yondoshuv.

2000 yil oxirlarida "A.Akbarali" mashuliyati cheklangan jamiyat uz faoliyatini Valik kishlogida boshlaydi va paxta tolasidan yigirilgan ip (pryaja) ishlab chigaradi. 2000 yilda 250 tonna yigirilgan ip va 300 ming metr pogonometr ip gazlama ishlab chikarishdan boshladi.

2003 yilga kelib bu kursatgich 300 tonna yigirilgan ip xamda 750 ming p\metr ip gazlama ishlab chikardi, shu bilan yahna korxonada 60 ta ish urni barpo etildi.

Xozirda yiliga o'rtacha 2000 tonna ip hamda 1700 – 1800 ming metr mato ishlab chikarish rejalashtirilgan. Bu ishlar xajmini bajarish uchun uchun 67 ta ish o'rni ham tashkil etildi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusini e'tiborga olib "Akbarali" korxonasi misolida moddiy xom – ashyo omillaridan foydalanish darajasining foyda miqdoriga ta'sirini aniqlaymiz. Tahlilni dastlab foyda miqdorini baholashdan boshlaymiz

Ishlab chiqarish harajatlarining hajmi korxona foydasiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Foyda miqdorini ham oshirishning eng asosiy omillaridan biri ham ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish bo'lib hisoblanadi. Biz tahlil qilayotgan korxonada foyda miqdori ishlab chiqarish harajatlari ta'sirida qanday o'zgarganligini quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Foyda miqdorining tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		Chetlanish (+/-)
		2012 yil	2013 yil	
1	Mahsulot xajmi, ming so'm	12796146,02	13130123	333976,98
2	Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi, ming so'm	9853032	10775297	922265
3	Ishlab chiqarishdan olingan foyda, ming so'm	2943114	2354826	-588288
4	Mahsulot rentabelligi, %	29,8	22	-7,8
5	Bir so'mlik mahsulot uchun xarajat, so'm	77	82	+5,0

Jadval ma'lumotlari ishlab chiqarishdan olingan foyda 588288 ming so'mga kamayganini ko'rsatmoqda. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan.

1. Mahsulot hajmining o'zgarishi:

$$\frac{13130123 - 12796146,02}{12796146,02} * 2943114 = 76815 \text{ ming so'm.}$$

2. Mahsulot tannarxining o'zgarishi:

$$\left(\frac{10775297}{13130123} - \frac{9853032}{12796146,02} \right) * 13130123 = 656506,15 \text{ ming so'm.}$$

3. Ikki omil yig'indisi:

$$(+76815) + (-656506,15) = 580691 \text{ ming so'm.}$$

Demak, foyda miqdori mahsulot hajmini oshishi hisobiga 76815 ming so'mga ko'paygan, lekin tannarxni o'zgarishi hisobiga esa 656506,2 ming so'mga kamaygan. Bunga tannarx tarkibidagi moddiy harajatlarning oshib ketishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. SHunday ekan tahlilni avvalo ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilishdan boshlaymiz.

2.2. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan harajatlar tahlili.

Bozor munosabatlari sharoitida ho'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari tannarxini tahlil qilishda boshqaruv tahlilining eng asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarish harajatlarini o'rganish va ularning holatiga baxo berish;
- mahsulot tannarxining pasaytirish bo'yicha belgilangan rejaning bajarilishi va dinamikasini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish harajatlarining iqtisodiy elementi va kalkulyasion moddalari bo'yicha o'rganish va ularga baxo berish;
- mehnat unumdorligi bilan ish haqi harajatlari o'rtasidagi nisbatni o'rganish;
- tannarxni o'zgarish sabablarini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillarni miqdor jihatidan hisoblash;
- ayrim turdagi mahsulot tannarxini harajat moddalari bo'yicha tahlil qilish;
- tannarxni pasaytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash va hokazo.

“Mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxiga kiritiladigan mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha harajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish haqida ” gi Nizomga muvofiq ishlab chiqarish harajatlarini hisobga olishning umumiyliigi ta'minlangan. Buning yakunida mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish harajatlarini rejalashtirish, tahlil etish va nazorat qilishga imkoniyat tug'iladi.

Bugungi kunda ho'jalik yurituvchi sukb'ektlarning mahsulotlari tannarxini tahlil qilishda boshqaruv tahlilining asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ho'jalik sub'ektlarning biznes reja ma'lumotlari;
- 5-S “Korxona sarf harajatlari to'g'risida” gi hisoboti ma'lumotlari;
- 1-T “Mehnat hisoboti” ma'lumotlari.

Tahlil etishda o'rganish ob'ekti va maqsadidan kelib chiqqan holda korxona harajatlaring u yoki bu turkumi bo'yicha o'zgarishlar va sabablariga baxo beriladi. Taqqoslash yoki qiyosiy o'rganish joriy davr va o'tgan yil ma'lumotlari, biznes-reja ko'rsatkichlari, o'rtacha ko'rsatkichlar va tarmoq bo'yicha boshqa ma'lumotlar olinadi. Taqqoslashda ko'rsatkichlar bo'yicha mutloq o'zgarishlar nisbiy ko'rsatkichlarni qo'llash orqali to'ldiriladi.

Bir so'mlik mahsulotga ketgan harajat ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlaridan biridir. Bu ko'rsatkich mahsulot tannarxining shu mahsulotning ulgurji narxlardagi qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi. Bir so'mlik mahsulot harajatlariga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- mahsulot strukturasiidagi o'zgarishlar;
- mahsulot tannarxining o'zgarishi;
- material energiya tariflarining o'zgarishi;
- mahsulot baxosining o'zgarishi.

Mahsulot tannarxini ifodalovchi ko'rsatkichlardan eng muhimi, bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan harajatdir. Bu ko'rsatkich tiyin hisobida quyidagicha aniqlanadi:

Bir soʻmlik tovar mahsulot uchun qilingan xarajat, tiyin = $\frac{\text{Ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Tovar mahsulotning ulgurji baxosi}}$
 Bu koʻrsatkich orqali qilingan harajatlarning samaradorligini aniqlash mumkin. Tahlil etishda bir soʻmlik tovar mahsuloti uchun qilingan harajatlarning rejaga nisbatan oʻzgarishi aniqlanadi.

2-jadval

Bir soʻmlik mahsulot uchun qilingan harajatlار tahlili.

№	Koʻrsatkichlar	2012 yil	2015 yil	Oʻzgarishi (+/-)
1	Mahsulotning ishlab chiqarish xajmi, ming soʻmda	12796146,02	13130123	333976,98
2	Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi, ming soʻm	9853032	10775297	922265
3	Bir soʻmlik tovar mahsulot uchun qilingan harajatlار, tiyin	77	88	5

Xulosa: jadval maʼlumotlari korxonada 2013 yilda bir soʻmlik mahsulot uchun qilingan harajatlار 2012 yilga nisbatan $(82 - 77) = 5$ tiyinga oshganligini koʻrsatmoqda. Harajatlarning bunday oshishi korxonaning rentabellik darajasini kamaytiradi.

Rentabellik va bir soʻmlik mahsulot uchun qilingan sarf-harajatlار oʻrtasida quyidagi bogʻliqlik mavjud:

$$\Delta P = (1 - I_{\bar{o}.c.m}) \times \frac{100}{I_{\bar{o}.c.m}}$$

Yaʼni, bu yerda:

$I_{b.s.m}$ - bir soʻmlik mahsulot uchun harajatlار indeksi.

Buni quyidagicha aniqlaymiz:

$$I_{\bar{o}.c.m} = \frac{0,82}{0,77} = 1,06$$

$$\Delta P = (1 - 1,06) \times \frac{100}{1,06} = -5,6 \%$$

Rentabellik darajasi bir soʻmlik mahsulot uchun qilingan harajatlarning 5 tiyinga oshishi sababli 5,6 % ga kamayadi. Bu hisobot va oʻtgan yildagi rentabellik koʻrsatkichi orasidagi farqqa taxminan teng.

2.3. Mahsulot tannarxini harajatlar elementlari boʻyicha tahlil qilish.

Ishlab chiqarish harajatlarini hisobga olish va tahlil etishning uslubiy va meʼyoriy shakli Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999 yil 5 fevralda tasdiqlangan 54-sonli “Mahsulot (bajarilgan ish, koʻrsatilgan xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxi, mahsulot (ish bajarish va xizmatlar koʻrsatish) ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi tartibi toʻgʻrisida” gi Nizom bilan belgilanadi.

Harajatlarning elementi boʻyicha guruhlariga ajratishdan maqsad ularning strukturasi va dinamikasini nazorat qilishdan iborat.

Koʻrsatkichlarni taqqoslash orqali jonli mehnat bilan boshqa harajat turlarining nisbati, ishlab chiqarish zaxiralarini normallashtirish va tahlil etish, oborot mablagʻlarining tezligini aniqlash va milliy daromadni hisoblash imkoniyati tugʻiladi.

Harajatlarning elementlari boʻyicha tahlil natijalariga muvofiq material sigʻimi, mehnat sigʻimi va fond sigʻimi smetadagi koʻrsatkichlar bilan taqqoslanib, ularning oʻzgarish sabablari aniqlanadi. Tahlilni chuqurlashtirish tannarxni kamaytirish imkoniyatlarini harajatlarning vujudga kelish joyi boʻyicha aniqlash maqsadida mahsulot tannarxini harajat elementlari boʻyicha tahlil etamiz.

3-jadval

“Akbarali” korxonasida ishlab chiqarish harajatlarini iqtisodiy elementlar boʻyicha tarkibi tahlili.

№	Harajat guruhlari	2012		Haqiqiy hajmga tuzatilgan harajatlar		2013		Farqi, ming soʻm	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%	mutlaq	nisbiy
1	Moddiy harajatlar, ming soʻm	8670668	88	8896105	88,0	9611565	98	940897	715460
2	Mehnat harajatlari,	443386	4,5	451455,63	4,5	507602,5	4,7	+64216	+56146

	ming so'm								
3	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari, ming so'm	110846,6	1,13	112864	1,11	126901	1,18	16054,4	14037
4	Amortizatsiya, ming so'm	269382	2,7	269382	2,7	280157,7	2,6	+10775,7	+10775,7
5	Boshqa harajatlar, ming so'm	358749	3,67	368076	3,60	2598465	2,42	-98903	- 108229,5
	Jami	9853032	100	10097882	100	10775297	100	922265	677415

Xulosa: jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada 2013 yilda ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi 10775297 ming so'mni tashkil etib, 922265 ming so'mga oshirilgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining bajarilishi e'tiborga olinganda ham bu 677415 ming so'mni tashkil etmoqda.

Bunga quyidagilar sabab bo'lgan:

- moddiy harajatlarning oshib ketishiga xom ashyo sarflari bo'yicha me'yorlarning buzilishi;
- mehnat harajatlari bo'yicha nisbiy ortiqchalikka erishilgan, chunki bu ishchilar soni bo'yicha nisbiy ko'plikka yo'l qo'yilgan;
- amortizatsiya ajratmalari bo'yicha ham ortiqcha sarfga yo'l qo'yilgan, chunki haqiqatda asosiy fondlar qiymati yangi kiritishi tufayli oshgan;
- boshqa harajatlar bo'yicha iqtisodga erishilgan.

Mehnat haqi – bu jamiyat ko'lamida milliy daromadning ishchilar va xizmatchilar o'rtasida ular mehnatining miqdori va sifatiga muvofiq taqsimlanadigan hamda shaxsiy iste'mol masqsadlari uchun foydalaniladigan qismidir.

Korxona mehnatiga haq to'lashdan mehganat unumdorligini oshirishni, fan-texnika tarqqiyotini jadallashtirishni, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni eng muhim vositasi sifatida foydalaniladi. Ish haqini tashkil etish, ularni shakllantirishdan asosiy maqsad barcha xodimlarni ish haqi yakka va kollektiv mehnat natijalariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lishiga erishishdan, mehnatga haq to'lashga tekischilik elementlarini bartaraf etishdan iborat.

Bugungi kunda korxonalarda xodimlarning ish haqini tahlil etishning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Bazis davri va rejadagi ish haqi fondining realligini baxolash.
2. Ish haqi fondini mutlaq va nisbiy farqlarini aniqlash.
3. Ish haqi fondiga ta'sir etuvchi omillarni miqdor jihatidan o'lchash.
4. Ish haqi fondi tarkibidagi unumsiz harajatlarni hisoblash.
5. Mehnat unumdorligi bilan o'rtacha ish haqi o'rtasidagi nisbatni tannarxga bo'lgan ta'sirini hisoblash.

Ish haqini mutlaq farqini aniqlash uchun sarflangan ish haqi fondini o'tgan yilgi miqdor bilan taqqoslash lozim. Nisbiy farqni aniqlash uchun haqiqiy sarflangan hisobot davridagi ish haqi o'tgan davrdagi ish haqini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga korrektirovka qilingan ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi.

Hisob-kitoblar:

1. Mahsulot hajmining bazis davriga nisbatan o'sishi – 2,6 %
2. Ish haqining qo'shimcha ortishi – $2,6 \times 0,7 = 1,82$ %

4-jadval

Korxonadagi sanoat ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi fondining tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	Farqi, (+;-)	
				Summadagi, ming so'm	Foizdagi, %
1	Mahsulot (ish, xizmat) hajmi, ming so'm	12796146, 02	13130123	333976,98	102,6
2	Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi fondi, ming so'm	443386	507602,5	+64216	114
3	Ish haqi berish koeffitsienti	x	1,82	x	X
4	Ish haqi fondini qayta hisoblash korrektirovkasi, ming so'm	451455,63	507602,5	+56146	112

1. Ish haqining mutlaq farqi 64216 ming so'm (507602,5-443386) ni tashkil etadi.
2. Ish haqining nisbiy farqi 56146 ming so'm (507602,5-451455,63) ni tashkil etadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan davrda korxonada mahsulot hajmi 102,6 % ga bajarilgan. O'sish foizi 1,82 % ni $(2,6 \times 0,7)$ tashkil etgan. SHuning uchun ish haqi fondi 451455,63 ming so'mni tashkil etishi lozim edi. Lekin hisobotda 507602,5 ming so'mni tashkil etgan. Nisbiy ko'plik 56146 ming so'm bo'lib, bu esa korxonada mehnat resurslaridan oqilona foydalanilganidan dalolat beradi.

Sanoat ishlab chiqarish xodimlari ish haqi fondi tarkibida ishchilarning ish haqi yuqori salmoqqa egadir. SHu bois ishchilarning ish haqidan fay darajada foydalanilganligini nazorat qilish, unumsiz harajatlarga yo'l qo'ymaslik tannarxni pasaytirishimkoniyatini beradi. Tahlil etishda ishchilarning hisobot davridagi haqiqiy sarflanagan ish haqini rejadagi, o'tgan yildagi ish haqi fondi bilan taqqoslanadi, uning farqi aniqlanadi va unga ta'sir etuvchi quyidagi omillar miqdor jihatdan hisoblanadi.

1. Ishchilar sonining o'zgarishi.
2. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqining o'zgarishi.

Birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun ishchilarning nisbiy farqi rejadagi yoki o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqiga ko'paytirish kerak. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqining o'zgarishini ish haqi fondiga bo'lgan ta'sirini aniqlash uchun ko'rsatkichning farqini hisobot davridagi ishchilarning haqiqiy soniga ko'paytirish lozim.

5-jadval

Ish haqi fondiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	Korrektirovka qilingan ko'rsatkich	2013 yil	Farqi, (+;-)	
					mutlaq	nisbiy
1	Ishchilarning yillik ish haqi fondi, ming so'm	443386	451455,63	507602,5	+64216	+56146
2	Ishchilarning ro'yhat bo'yicha o'rtacha soni, kishi	67	68	69	+2	+1
3	1 ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqi, so'm	6617,70	6639,1	7356,6	-738,9	+717,5

4	Ish haqi fondining rejaga nisbatan o'zgarish sabablari:					
	a) Ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga; $1 \times 6639,1$	x	x	x	x	6639,1
	b) Bir ishchining o'rtacha yillik ish haqining o'zgarishi hisobiga; $+717,5 \times 68$	x	x	x	x	48790

Jadval ma'lumotlari ishchilar ish haqining mutlaq farqi 64216 ming so'mni, nisbiy farqi esa 56146 ming so'mni tashkil etganini ko'rsatmoqda. Ishchilarning nisbiy ko'pligi hisobiga 6639,1 ming so'mga ortiqcha xarajat qilingan. SHu bilan birga ishchilarning o'rtacha yillik ish haqining o'zgarishi hisobiga ish haqi 48790 ming so'mga oshgan. Barcha omillar yig'indisi ish haqi bo'yicha nisbiy farqqa taxminan teng.

2.4. Korxonada moddiy xarajatlardan foydalanish darajasini tahlil qilish.

Korxonalarning xom ashyo va materiallar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish darajasi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

To'qimachilik sanoati moddiy sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarga mansubligi tufayli korxonalarda materiallardan foydalanishni tahlil etish va bu asosda ularni iqtisod qilishning ichki ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Moddiy xarajatlardan va xom ashyo materillardan foydalanish darajasini taxlil qilish uchun ma'lumotlarga xom ashyo va materiallar sifatining tasdiqlangan me'yorlari, xom ashyodan maxsulot chiqish me'yorlari, "Korxona xarajatlari to'g'risida" 5s shakldagi hisobot, "Sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish to'g'risidagi" 15 shakldagi hisobot va boshqalar kiradi.

Taxlil uchun quyidagi jadvaldan foydalanamiz.

Korxonada moddiy xarajatlardan foydalanish tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	Farqi	
				Mutloq	Foizda
1	Tovar maxsulot xajmi, ming so'm	12796146,02	13130123	333976,98	2,6
2	Moddiy xarajatlar xarajatlar, ming so'm	8670668	9611565	940897	10,8
3	Moddiy xarajatlar sig'imi sig'imi, so'm	0,677	0,732	0,06	8
4	Tovar mahsulot tannarxi, ming so'm	9853032	10775297	922265	9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, korxonada hisobot yilida tovar maxsulot xajmi 2,6 % ga oshgani holda, moddiy xarajatlar 10,8 % ga oshirilgan. Buning natijasida moddiy xarajatlar sig'imi esa 0,06ming so'mga yoki 8 % ga oshirib yuborilgan.

Endi moddiy sig'imning maxsulot ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlaymiz.

Avvalo material safi o'zgarishining mahsulot tannarxiga ta'sirini aniqlaymiz:

$$0,06 \cdot 13130123 = 787807 \text{ ming so'm.}$$

Demak, moddiy sarflarning oshishi natijasida mahsulot tannarxi 787807 ming so'mga qimmatlashgan. Foyda miqdori ham shu miqdorga kamaygan.

Hisoblarni mahsulot hajmini o'zgarishini aniqlashda davom ettiramiz:

$$787807 / 0,677 = 1163674 \text{ ming so'm.}$$

Demak, moddiy sarfning ortishi hisobiga mahsulot hajmi 1163674 ming so'mga kamaygan.

2.5. Korxonada materiallar sarfi me'yorlarining bajarilish tahlili.

Materiallardan foydalanishda ular sarfi me'yorlariga rioya qilingan yoki qilinmaganligini o'rganish ham dolzarb masaladir.

Agar bunga amal qilinmasa, ya'ni materiallarning xaqiqiy sarfi me'yorga nisbatan ortiqcha bo'lsa, rejalashtirilgan maxsulotlar ishlab chiqarish xajmi materiallar etishmasligi sababli kamayib ketadi, materiallar iqtisodi esa maxsulot xajmining oshishini keltirib chiqaradi. Bularni hisoblash usuli quyidagicha.

1. Maxsulot birligi uchun belgilangan xarajat me'yori ularning xaqiqiy sarfi bilan solishtiriladi.
2. Olingan iqtisodiy yoki ortiqcha xarajat ishlab chiqarilgan maxsulotning umumiy miqdoriga ko'paytiriladi.
3. Materiallarni sarf etishda sodir bo'lan ortiqchaxarajat yoki iqtisod material sarfi me'yoriga bo'linadi.

Shu tariqa ortiqcha sarf oqibatida maxsulot xajmining kamayishi, yoki iqtisod oqibatida maxsulot xajmining oshish xajmi aniqlanadi.

Tahlilni 1 kg kalava ip uchun sarflangan paxta xom – ashyosi bo'yicha sarf me'yorlarning o'zgarishini aniqlashda davom ettiramiz.

7-jadval

Materiallardan sarf me'yorlari bo'yicha foydalanishini tahlil qilish.

T/r	Ko'rsatkichlar	Kalava ip
1	1 kg uchun sarf qilinadigan paxta xom – ashyosi, kg: Me'yor bo'yicha Haqiqatda Farqi	1,13 1,155 +0,025
2	Xaqiqatda ishlab chiqarilgan maxsulot xajmi, kg	1825000
3	Iqtisod (-), ortiqcha (+) sarf, hamma ishlab chiqarilgan kalava ipga(kg)	+45625 (1825000*0,025)
4	Kam ishlab chiqarilagn maxsulot miqdori.	40376(45625/1,13)

Jadvaldan ko'rinishicha, korxonada 1 kg ip uchun me'yor bo'yicha 1,13 kg paxta xom – ashyosi sarflanishi kerak bo'lgan holda, xaqiqatda 1,155 kg sarflangan. Buning natijasida xar bir kilogramm ip uchun 0,025 kg ortiqcha paxta xom – ashyosi ishlatilgan.

Yil davomida ishlab chiqarilgan maxsulot hajmi (1825000 kg) uchun ortiqcha sarf 45625 kg tashkil etgan. Buning natijasida ishlab chiqarish xajmi 40376 kilogrammga kamaygan yoki qiymat ifodasida 232162 ming so'm ($40376 \cdot 5750$) kamaytirib yuborilgan (bunda 5750 ming so'm 1 kilogramm ipning o'rtacha ulgurji narxi).

Demak, korxonada material sarfi me'yorlariga qat'iy rioya qilish asosida maxsulot xajmini oshirishga etiborni qaratish lozim.

3-BOB. MODDIY XOM-ASHYO OMILLARIDAN OQILONA FOYDALANISH ASOSIDA FOYDA MIQDORINI OSHIRISH CHORA TADBIRLARI.

3.1. Moddiy xarajatlar bo'yicha iqtisod qilishtadbiri.

Foydani oshirish har qanday korxonaning bosh vazifasi hisoblanadi. Foydani oshirilishi tufayli korxonaning maqsadi amalga oshadi. U korxonani kengaytirish, rivojlantirish hamda korxona xodimlarining moddiy manfaatdorligini oirish manbai hisoblanadi. Foydani oshirishning yo'llari juda ko'p bo'lib, ular tarkibida xom ashyo materillaridan oqilona foydalanish muhim o'rinni egallaydi. Afsuski, juda ko'p korxonalarda xom ashyo materillardan foydalanish borasida isrofgarchilikka yo'l qo'yilmoqda. Buning natijasida tannarxning ko'payishi vujudga kelib, foydani kamayishi yuz bermoqda. Sarf me'yorlarini takomillashtirish eng dolzarb masala hisoblanadi. Bitiruv-malakaviy ish mavzusini e'tiborga olib "Akbarali" korxonasidagi amalga oshirilgan tahlil moddiy xom ashyo omillaridan foydalanish borasida ancha kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, bular tarkibiga moddiy harajatlar sarfi bo'yicha ortiqcha sarflarni kiritish mumkin. Agar o'tgan yili 1 so'mlik mahsulot uchun 0,677ming so'mlik moddiy harajat sarf etilgan bo'lsa, hisobotda esa bu 0,732 ming so'mni tashkil etgan. Buning natijasida mahsulot tannarxi 787807 ming so'mga qimmatlashgan hamda 1163674 ming so'mlik mahsulot kam ishlab chiqarilgan. Bunday holatga material sarfi bo'yicha sarf me'yorlarining buzilishi sabab bo'lgan. Bu kamchilikni bartaraf etish maqsadida yigiruv sexiga, hususan titish jarayonidan so'ng chiqindilarni qayta ishlovchi S-6 rusumli jihozni joriy etish taklif qilinadi. Jihozning afzalligi shundan iboratki, xom ashyoni titish va savalash jarayonida chiqadigan chiqindilarni qayta ishlansa, undan 40-50 % kalava ip tarzida qaytishi mumkin.

Ushbu tadbir samaradorligi quyidagi tartibda hisoblanadi. Korxonada kalava ip ishlab chiqarish hajmi 1825000 kilogramni tashkil etadi.

Mahsulot hajmiga kelgan moddiy harajatlarni hisoblaymiz:

$$M = M_1 * Q$$

Bunda:

M_1 – 1 soʻmlik mahsulotga ketgan moddiy harajatlar;

$$M_1 = 0.732 \text{ ming soʻm.}$$

$$M = 1825000 * 0.732 = 1335900 \text{ ming soʻm.}$$

Oʻtgan yil yil meʼyori boʻyicha hisoblaganimizda:

$$M = 1825000 * 0.677 = 1235525 \text{ ming soʻm.}$$

Demak, moddiy harajatlar boʻyicha ortiqcha sarf quyidagiga teng boʻlgan.

$$1335900 - 1235525 = 100375 \text{ ming soʻm.}$$

Korxonada moddiy harajatlar tarkibidagi xomashyo va materiallar boʻyicha 100375 soʻm ortiqcha sarfga yoʻl qoʻyilgan. Agar 1 kilogramm ipni ishlab chiqarish uchun meʼyor boʻyicha 1.13 kilogramm xom ashyo sarf etilishini va 1 kilogramm paxta xom ashyosining narxi 1600 soʻmni tashkil etishini eʼtiborga olsak qoʻshimcha ishlab chiqarilishi mumkin boʻlgan mahsulot hajmini aniqlaymiz.

$$\frac{100375}{1600} = 62734 \text{ kilogram yoki } 62,7 \text{ tonna.}$$

Demak 62,7 tonna ip ishlab chiqarilmagan. U chiqindi sifatida namoyon boʻlgan. Agar ishlab chiqarish jarayoniga S-6 jihozini kiritsak, jihoz yordamida bu qayta ishlansa uning 40 % dan qoʻshimcha mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati vujudga keladi, yaʼni:

$$62734 * 0.40 = 25093,7 \text{ kilogramm.}$$

Qiymat ifodasi bu quyidagiga teng boʻladi:

$$25093,7 * 5250 = 131738,3 \text{ ming soʻm.}$$

Korxona miqyosida mahsulot hajmining oshishi quyidagiga teng boʻladi:

$$\Delta Q = \frac{131738,3}{13130123 * 100} = 1,01\%$$

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi shartli doimiy xarajatlar bo'yicha iqtisodga erishish imkoniyatini beradi.

Bu quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta T_{uod} = \left(1 - \frac{I_{uod}}{I_Q}\right) * Y$$

Bu erda:

I_{shd} – shartli-doimiy xarajatlarning o'zgarish indeksi, bu 1 ga teng;

I_Q – ishlab chiqarish hajmining o'zgarish indeksi;

U – shartli-doimiy xarajatlar ulushi.

$$\Delta T_{uod} = \left(1 - \frac{1}{0,1}\right) \times 15 = 0,15$$

Qiymatda bu quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta T = \frac{10775297 * 0,15}{100} = 161629 \text{ ming so'm.}$$

Tadbir uchun kerakli kapital mablag'ining qoplanish muddati quyidagiga teng:

$$T_{qop} = \frac{KM}{\Delta T}$$

Bunda:

KM – S-6 rusumli jihozining qiymati – 55600 m.s.

$$T_{qop} = \frac{55600}{161629} = 0.3 \text{ yil yoki 4 oy}$$

Xulosa: ishlab chiqarish jarayonini oqilona tashkil etish asosida sarflangan har qanday moddiy harajatdan tejamga erishish asosida qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga hamda moddiy resurslar bo'yicha iqtisodga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu esa foyda miqdorini 161629 ming so'mga oshiradi.

3.2. Xom ashyo va materiallar tarkibini o'zgartirish asosida foyda miqdorini oshirishga erishish.

2-bobda o'tkazilgan tahlil "Akbarali" korxonasida ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha ortiqcha sarflarga yo'l qo'yilganini ko'rsatdi. Xususan, hajmning haqiqiy bajarilishiga xarajat moddalari tuzattirilganda eng katta ulushni xom ashyo va materiallar sarfi va yordamchi materiallar bo'yicha hamda ish haqi xarajatlari bo'yicha ham ortiqcha sarfga yo'l qo'yilgan.

Ma'lumki, xom ashyo va materiallar sarfi salmoqli ulushni egallaydi. Uning salmog'i 70-80 % ni tashkil etadi. "Akbarali" korxonasida hisobot yilida 9611565 ming so'mlik moddiy xarajat sarf etilgan bo'lsa, undan 7593136,35 ming so'mi xom ashyo va yordamchi materiallar uchun sarf tashkil etadi. Korxonada kalava ip, mato va tikuvchilik buyumlari ishlab chiqariladi. Mato ishlab chiqarish jami ishlab chiqariladigan mahsulotning 15 % ini tashkil etadi. Buni hisobga olib jami sarflanadigan xom ashyo va materiallarning 1040018 ming so'mi mato ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan xom ashyo va materiallarga sarf bo'ladi, deb hisoblaymiz. Ishlab chiqariladigan mato hajmi 1700 ming metr mato. Mato turlaridan qat'iy nazar bu sarflar o'rtacha miqdorda quyidagilar uchun yo'naltiriladi. Bu sarflar quyidagi jadvalda keltirilgan.

8-jadval

Xom ashyo va material sarflari.

№	Xom ashyo va materiallar	O'lchov birligi	Bir metr mato uchun sarf me'yori, kg	Xom ashyo bahosi, so'm	Umumiy hajm uchun sarf miqdori, kg	Umumiy sarf, ming so'm
1.	Ip kalava	kg	0,161	3595,77	274982	988774
2.	Kraxmal	kg	0,0184	1482	31280	46356
3.	Sovun	kg	0,00041	1200	697	836
4.	Yog' (paxta)	kg	0,088	3814	149,6	570
5.	Kaustik soda	kg	0,00018	2712,29	306	829
6.	Kley	kg	0,0000736	5144,61	125,12	643
7.	Ammiak	kg	0,0000935	4316,68	15,95	686
8.	Xloramin	kg	0,0001133	6875	192,61	1324
	Jami					1040018

Bu materiallar tarkibida kraxmal ancha ulushni egallaydi. Kraxmal va boshqa yordamchi materiallar shlixtalash jarayoni uchun zarurdir. Chunki bu materiallar aralashmasidan tayyorlangan qorishma matoning pishiq, puxtaligini oshirib, ipning uziluvchanligini kamaytiradi. Foydalaniladigan kraxmal guruch kraxmali bo'lib, u mahsulot sifatining yuqori darajasini ta'minlaydi. Lekin uning salbiy jihatlari ham mavjud, ya'ni tashkiliy-texnik sabablarga ko'ra yuz beradigan uzilishlar tufayli kraxmal o'z sifatini va holatini yo'qotadi hamda undan foydalanish mumkin bo'lmaydi. 600 metr mato uchun umumiy miqdorda 1000 metr qorishma tayyorlanadi. Agar jihoz uzilishi yuz bersa, shuncha qorishma yaroqsiz holatga keladi. SHuning uchun bu kraxmalni kartoshka kraxmali bilan almashtirish, shuningdek qorishma tarkibiga mahsulotning yuqori sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi tuzni qo'shish taklif etiladi. Kartoshka kraxmali bilan tuz aralashmasi guruch kraxmali ta'minlaydigan yuqori sifatni beradi. SHuningdek, kartoshka kraxmali arzon bo'lib, u yuqori oqartiruvchi xususiyatga ega. Xom ashyo va materiallar tarkibini o'zgartirish natijasida u quyidagi tarkibdan iborat bo'ladi.

9-jadval

Xom ashyo va materiallar sarfi (loyiha).

№	Xom ashyo va materiallar	O'lchov birligi	Bir metr mato uchun sarf me'yori, kg	Xom ashyo bahosi, so'm	Umumiy hajm uchun sarf miqdori, kg	Umumiy sarf, ming so'm
1.	Ip kalava	kg	0,161	3595,77	274982	988774
2.	Kraxmal (kartoshka)	kg	0,0184	900	31280	28152
3.	Sovun	kg	0,00041	1200	697	836
4.	YOg' (paxta)	kg	0,088	3814	149,6	570
5.	Kaustik soda	kg	0,00018	2712,29	306	829
6.	Kley	kg	0,0000736	5144,61	125,12	643
7.	Ammiak	kg	0,0000935	4316,68	15,95	686
8.	Xloramin	kg	0,0001133	6875	192,61	1324
9.	Tuz	kg	0,00833	276	14161	3908
Jami						1025722

Taklif etilgan xom ashyo tarkibi yordamchi materiallar bo'yicha iqtisodga erishish imkoniyatini beradi. Erishiladigan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagi tartibda hisoblanadi.

1. Mato uchun sarflanadigan xom ashyo va materiallar sarfi bo'yicha iqtisod quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta X = 1040018 - 1025722 = 14296 \text{ ming so'm.}$$

Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xom ashyo va materiallar sarfining o'zgarishi:

Hisobot bo'yicha:

$$X_{c_1} = 1040018 : 1700 = 0,611 \text{ ming so'm;}$$

$$X_{c_2} = 1025722 : 1700 = 0,603 \text{ ming so'm;}$$

$$\Delta X_c = 0,603 - 0,611 = -0,008 \text{ ming so'm.}$$

Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish hajmi quyidagiga teng.

Mahsulot hajmiga hisoblanganda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta T = 1700 * 0,008 = 13600 \text{ ming so'm.}$$

Iqtisod qilingan sarf hisobiga qo'shimcha ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta Q = 13600 : 0,603 = 22553 \text{ metr mato.}$$

Qiymatda bu quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta Q_k = 22553 * 1500,73 = 33846 \text{ ming so'm.}$$

Bu erda:

1500,73 – 1 metr mato bahosi, so'm.

Korxona bo'yicha mahsulot hajmining o'sishi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta Q_k = \frac{33846}{13130123} * 100 = 0,3\%$$

Korxona bo'yicha mahsulot hajmi 0,3 % ga o'sadi. Bu o'z navbatida shartli-doimiy xarajatlar bo'yicha iqtisodga erishish imkonini beradi:

$$\Delta T = \frac{10775297 * 15 * 0,3}{100 * 100} = 4848 \text{ ming so'm.}$$

Demak, tannarx yoki ishlab chiqarish xarajatlari shartli-doimiy xarajatlar hisobiga 4848 ming so'mga kamayib, foyda miqdori ham shunchaga pasayadi.

XULOSA

Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun moddiy omillarning xususan xom ashyo va materiallarning mavjud bo'lishi tabiiy zaruriyatdir. Xom ashyo va materiallar sarfi tannarxda salmoqli o'rinni egallagani uchun u bo'yicha iqtisodga erishish, foyda miqdorini ham ancha miqdorga oshishiga olib keladi. Bitiruv malakaviy ishi ham dolzarb mavzuga bag'ishlangan bo'lib, ishning birinchi bobida moddiy omillar tushunchasi, uning tarkibi hamda ulardan oqilona foydfalanish ahamiyati yoritiladi. Ikkinchi bobda esa "Akbarali " korxonasi misolida moddiy xom ashyo omillaridan foydalanish darajasiga baho beriladi. Bunda quydagilar aniqlanadi:

- moddiy xarajatlar bo'yicha 940897ming so'mlik ortiqcha xarajatga erishilgan, bunga asosan uning tarkibida salmoqli ulushni egallagan xom ashyo va materiallar bo'yicha yuzaga kelgan xarajat sabab bo'lgan. Shuningdek, tahlil bir kilogram ip uchun sarflangan xom – ashyo sarflari bo'yicha, xususan, 1 kilogramm ip uchun 1,13 kilogramm paxta xom - ashyosi o'rniga 1,155 kilogramm xom – ashyo sarf etilib, 45625 kilogramm ip kam ishlab chiqarilgan.
- bir so'mlik mahsulot uchun xarajatlar o'tgan yil 77 tiyin bo'lsa, hisobot davrida bu 82 tiyinga teng bo'lib, 5 tiyinga oshirilgan. Buning natijasida rentablilik darajasi 5 foizga kamaygan.
- ishlab chiqarish xarajatlari xarajat moddalari bo'yicha o'rganilganda, barcha xarajatlar bo'yicha iqtisodga erishgani ma'lum bo'ldi.
- ish haqi xarajatlari bo'yicha ham ishchilar soni bo'yicha 1 kishining nisbiy ko'pligiga erishgani sababli ortiqcha xarajat yuz bergan.
- ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi foyda miqdorini o'tgan yilga nisbatan 588288ming so'mga kamayishiga sabab bo'lgan.

Yuqoridagilarning barchasi korxona hisobot yilida samarali faoliyat yuritmagani ko'rsatadi.

Uchinchi bobda xom ashyo va yordamchi materiallardan oqilona foydalanish tadbirlar taklif etildi. Mato to'qishda ishlatiladigan qorishma tarkibi qayta ko'rib chiqildi. Buning natijasida xom ashyo va materiallar sarfi bo'yicha 13600 ming so'mlik iqtisodga erishildi. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xom ashyo va materiallar sarfi o'zgarib, xar bir matodan 8 so'mlik iqtisodga, jami ishlab chiqariladigan hajmiga hisoblanganda esa 15400 ming so'mlik iqtisodga erishish imkoniyati yaratildi. Buning hisobiga qo'shimcha 22553 metr mato yoki 33846 ming so'mlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati vujudga keldi. Korxona bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi 0,3 % ga o'sishi kuzatildi va buning hisobiga shartli doimiy xarajatlar bo'yicha iqtisod 4848 ming so'mni tashkil etib, foyda miqdori ham xom ashyo va materiallar iqtisodi va shartli doimiy xarajatlar iqtisodi hisobiga $13600 + 4848 = 18448$ ming so'mga oshishi aniqlandi.

Shuningdek, bir kilogramm kalava ip uchun sarf meyori 1,13 kilogramm paxta xom-ashyosi o'rniga 1,155 paxta xom-ashyosi sarf etilishini e'tiborga olib titish va tarash jarayonlaridan so'ng qayta ishlovchi jihozning kiritilishi taklif qolindi. Buning natijasida chiqindilarni qayta ishlash imkoniyati paydo bo'lib undan 40 % miqdorida tayyor mahsulot olinishi aniqlandi. Hususan, 25,1 tonna qo'shimcha mahsulot olish imkoniyati paydo bo'lib, qiymatda bu 131738,3 ming so'mni tashkil etadi. Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilishi hisobiga 1 kilogramm ip uchun to'g'ri keladigan xom-ashyo sarfi kamayadi.

Xulosa: ishlab chiqarishning xom ashyo omillaridan oqilona foydalanish korxonada foyda miqdorini oshirishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: O'zbekiston. 2002.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi T.: Adolat. 2002.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi T.: Adolat. 1996.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 - yil 5-fevraldagi 54 – sonli qarori bilan tasdiqlagan “Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish haqida” Nizomi.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2012 – yil 7 – martdagi “Sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida ” gi 64-sonli qarori.
6. Karimov I. A. “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida” T.: O'zbekiston. 1996.
7. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:“ O'zbekiston”. 1999.
8. Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.:O'zbekiston. 2009.
9. Karimov I. A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimiz ” O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza T.: O'zbekiston. 2010.
10. Karimov I. A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.” 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Maxkamasi majlisidagi maruzasi. T.: Xalq so'zi. 18.01.2011.
11. Karimov I. A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yilning asosiy

yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. T.: Xalq so'zi. 19.01.2012.

12. Karimov I. A. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy – iqtisodiy yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. T.: Xalq so'zi. 18.01.2014.
13. Abdukarimov B. A. va b. Korxona iqtisodiyoti. T.: Fan. 2005.
14. Abdullaev A. va boshqalar. Moliyaviy hisob. T.: Fan va texnologiya.2005.
15. Abdullaev Y. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. T.: Mehnat. 2008.
16. Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti. T.: Mehnat. 2004.
17. Akramov E. A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. T.:Moliya. 2003.
18. Gorfinkel V. YA. i drugie. Ekonomika predpriyatiya. M.: YUniti. 2008.
19. Goreмыкин V.A Planirovanie na predpriyatii. M.: Akademicheskii prospekt. 2006.
20. Ginzburg A. I. Ekonomicheskii analiz. SP.: Piter. 2007.
21. Kedrov B. I. i drugie. Ekonomika, organizatsiya i planirovanie xlopchatobumajnogo proizvodstva. M.: Legprombytizdat.1991.
22. Kutepova K. V., Pobedimskiy G. V. Nauchnaya organizatsiya i normirovanie truda v tekstilnoy promyshlennosti. M.: Legprombytizdat. 1997.
23. Maxmudov E. X. Korxona iqtisodiyoti. T.: TDIU. 2004.
24. MaxmudovE.X. Biznes planirovanie. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.2005.
25. MaxmudovE.X. Biznesni rejalashtirish. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.2005.
26. Mixaylushkin A. I. Ekonomika predpriyatiya. M.:Vysshaya shkola. 2000.

27. Nazarov A. Sh. Mehnatni tashkil qilish va normalash. T.: TDIU. 2004.
28. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2004.
29. Ortiqov A. , Kalendareva S.G. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2004.
31. Semenov V.M. Ekonomika predpriyatiya. M.: SEM. 2000.
32. Shepelenko G. Ekonomika, organizatsiya i planirovaniya proizvodstva na predpriyatii. RastovnaDonu.:Sentrmart.2000 .
33. Shoalimov A. Sanoat korxonalari xo‘jalik faoliyati tahlili. T.: O‘qituvchi. 1997.
34. Vahobov A. V. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.:Sharq. 2005.
35. “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi”. 2010-2014.
36. «Bozor, pul, kredit» jurnali. 2013-2014 .
37. www.books.ru
38. www.gaap.ru
39. www.uzreport.com
40. www.fin.stat.ru
41. www.glossary.com
42. www.cer.ru
43. www.gov.uz